



ҚАРШИ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

ФИЛОЛОГИЯ ИЛМИНИНГ ДОЛЗАРЪ МАСАЛАЛАРИ



**Илмий мақолалар
тўплами**

3-КИТОБ

Қарши -2017



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

ҚАРШИ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

ХОРИЖИЙ ТИЛЛАР ФАКУЛЬТЕТИ

ФИЛОЛОГИЯНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

Илмий мақолалар тўплами

3-китоб

		во французском языке	
36	Ризаханова М.Г	Француз тилида балиқ компонентли фразеологизмларнинг мавзули гуруҳлари	64
37	Сайфуллаев А.И.	Синтактик қурилмаларда предлог ва қўмакчи маъноларининг воқеланиши	66
38	Sultonova I.	Urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarning o'zaro alternatsiyasi	69
39	Ўлмасова Н.	“Pouvoir” модал феълининг содда гапларда ишлатилиши	70
40	Хидиров М.	Француз тилида инсон ҳиссиётларининг воқеланишини тадқиқ этиш йўллари	71
41	Элмуродова Г.	Предикативликни ифода этишда сўз бирикмасининг ўрни	73
42	Элмуродова Г.	Предикативлик ифодасида гапнинг аҳамияти	74
43	Элмуродова С.С.,	"Меҳмондўстлик" концептига оид лексик бирликларни танлаш тамойиллари	76
44	Юлдашева Л.К.	Метафора в творчестве А.Блока	77
2-БЎЛИМ. АДАБИЁТШУНОСЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ			
45	Тўраев Д.	Навоийни замондош этган адиб	79
46	Қаршибаева У.Д.	XVIII-XIX асрда романтизмнинг пайдо бўлиши	80
47	Эрматов Б.С.	Илк француз ёзма манбаларида Амир Темур сиймоси	83
48	Каромова Ш.	Навоийдан илҳомланиб	86
49	Асадов М.Т.	Эжен Ионеско пьесаларининг поэтик хусусиятлари	87
50	Асадов М.Т.	Бальзакнинг “Евгения Гранде” романида персонажлар характери тасвири	89
51	Баратова К.Х.	Клод Симон ижодида модернизм анъаналари	91
52	Давронова З.	Поиск идентичности в романе Патрика Модiano «Дора Брудер»	92
53	Маҳмудов А.Й.	Г.Э.Лессингнинг «Донишманд Натан» драмасидаги реаллик ифодаси	94
54	Мухиддинова Н.	«Поток сознания» в романе Фолкнера «ШУМ и ЯРОСТЬ»	97
55	Хидирбаев Ш., Қодирова Л.	Уильям Жералд Голдингнинг “Пашшалар қироли” романида ёшлар эътиқоди ва ҳаётини позицияси	100
56	Шукурова З.Ш.	Инглиз адабиётида роман жанрининг шаклланиши	101
57	Қурбонов П.	Байрон лирикасида шарқ	103
58	Облоқулова Ш.	Шароф Рашидов ижодига чизгилар	105
3-БЎЛИМ. ТАРЖИМАШУНОСЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ			
59	Холбеков М.Н.	Ўрта асрлар жаҳон таржимачилиги анъаналар	107
60	Ширинова Р.Х.	Таржимашуносликда когнитив тадқиқотларнинг аҳамияти	119
61	Имяминова Ш.С.	Таржима тарихидан	121
62	Ходжаев Г.К., Ашурова Ш.Ш.	Передача фразеологических единиц	125
63	Хошимова Д.М.	“Бобурнома” матнида муаллиф шахсияти ва характерининг ифодаловчи қиёсий воситаларнинг таржимада берилиши	127
64	Зоирова А.И.	XX асрнинг иккинчи ярмида француз шеърятидан қилинган таржималар хусусида	129
65	Комолова Ш.А.	Оғзаки ва ёзма таржимада луғатлардан фойдаланиш	131
66	Назирова У.Н.	Таржимада антонимик муносабатлар	132
67	Рустамова Ш.	Инглиз-ўзбек таржимачилигининг бугунги тадрижи хусусида	133
68	Рўзиева Ж.Э.	Заруриятни ифодаловчи модал феълли конструкциянинг ўзбек тилида ифодаланиши	135
69	Султонова Д.	Таржимашуносликда миллий-маданий тақсимланиш реалияларининг ифодаланиши	136
70	Tursunboyev B.	Ma'nodosh so'zlarni tarjimada to'g'ri tanlash	137
71	Hojiyeva G.S.	Gyustav Floberning “bovari xonim” romani matnida uchrovchi “rouge” rangidan yasalgan frazeologik birliklar va ularning tarjimalari tahlili	138
72	Ўринбоева Ф.	Инглиз адабиётидан шеърини таржимада образли воситаларнинг берилиши	140

- Если бы мог он узнат, что он сирота оставленный на милосердное попечение церковных старост и надзирательей, бит может, он кричал бы ещё громче (ИПОТ.12)

- Mobodo u cherkov oqsoqollari va nozirlarning shafqatingiz homiyligiga tashlab ketilgan **sag'ir** ekanini bilganida bormi, bundan ham qattiqroq chinqirgan bo'lardi. (OTBK.8)

Asliyatdagi birliklar ma'no va uslubiy vazifalarni aniqlash bilan birga, tarjimon o'z tilida ularga har tomonlama mos keladigan leksik birliklar qidiradi, muayyan sinonimiya qatoriga uyushadigan til birliklarini bir-biriga qiyoslaydi. Tarjimada sinonimiya qatori a'zorlaridan qay birini ishlatish ishlatish asliyatdagi birlikning xususiyatiga, uning til lug'at tarkibining qaysi qatlamiga mansub ekanligiga hamda u qo'llanilgan kontekstga bog'liq bo'ladi.

Masalan: T.Drayzerning »Baxtiqaro Kerri« asarida muallif ishlatgan so'z tarjimasida rus tarjimoni asliyatda ifodalangan "cruel" so'zini o'z tiliga "jestoki" birligi bilan talqin etgan. "Ruscha –o'zbekcha lug'at" da "jestoki" so'zining bir qator sinonimlari mavjud: "Berahm", "shafqatsiz", "bag'ritosh". O'zbek tarjimoni yuqoridagi sinonimik qatoridan umumlashgan ma'no kasb etuvchi so'zni tanlagan va tarjimada ekvivalentlar me'yorini bilgan.

We won't be so **cruel** as to send you away , my dear.

Нет, нет мой милый , ми не так жестоки и не отпустим тебя, мой милый.

Biz judayam unaqangi **toshbag'irlardan** emasmiz, azizim.

"Toshbag'ir" so'zi "berahm", "shafqatsiz", "bag'ritosh" birliklariga ma'nodosh, shuningdek ularning ekvivalenti hisoblanadi. Tarjimon leksik birliklarning sinonimlari asosida tarjima qilgan va keng kitobxon ommasining asarga bo'lgan qiziqishini oshirgan.

Tarjimon asliyatdagi birliklar ma'no va uslubiy vazifalarni aniqlash bilan bir qatorda, o'z tilida ularga har tomonlama mos keladigan leksik birlik qidirar ekan, ma'lum sinonimiya qatoriga uyushadigan til birliklarini bir-biriga qiyoslaydi. Tarjima asarida sinonimik qator ichidan eng mos va ma'qulini o'z ijodida qo'llab tarjimon fikrining jonli chiqishiga yanada o'z hissasini qo'shadi.

-Why? Sure you are not afraid of it? Said the old lady, observing in great surprise, the look of **awe** with the child regarded the painting. (S.C 127)

-Да уж не боишься ли ты его? –спросила строя леди, заметив, к большому своему изумлению, что мальчик с каким –то благотворейным страхом смотрит на картину (С.К.74)

- Tag'in undan cho'chiyoyegan bo'lmagin ? –so'radi kekxa xonim, bolakayning suratga qandaydir bir ixlos, ayni chog'da **hadik**-la javdirab tikilayotganini ko'rib bag'oyat taajjulanar ekan. (B.K.62)

Yuqorida keltirilgan misolda asarda tarjimon bolakayning qo'rquv holatida yotganini tarjima qilaturib, keng kitobxon ommasi e'tiborini qaratish maqsadida o'z tili adabiy normalaridan unumli foydalangan. Muallif bayon etgan fikrda "awe" so'zi rus tiliga o'girilganida haqiqatdan ham "благоговейные стax" ma'nosini beradi. Vositachi til orqali o'zbek tarjimoni o'z tiliga mazkur birlikni "hadik" so'zi yordamida qayta talqin etib, tarjima asarida ifoda uyg'unligini vujudga keltirgan. Ma'lum ikki tilli "Ruscha-o'zbekcha lug'at"larda ham "страх" so'zi "qo'rqish", "dahshat", "vahima", "qo'rqinch" kabi sinonimiya qatorini tashkil etadi. Albatta, tarjimon oldiga qo'yiladigan talablardan biri bo'lgan asl nusxada ifoda etilgan muayyan fikr tarjima tilidan qator imkoniy birliklar ichidan asliyatga eng mos keladiganini tanlash vazifasidir. Tarjimon shu kabi muammolarga barham berib, o'z tarjima asarida adekvatlikka qo'l urgan.

Odatda u yoki bu kishining xulq-atvoriga baho beradigan bo'lsak, ayrim kamchilik va nuqsonlarini qo'pol tarzda ochib tashlamasdan, biroz bo'lsa-da yumshoqroq ohangda ifodalaymiz. Mister Braunlouning do'sti mister Grimvich xulqidagi kamchilikni tarjimon o'z tili kitobxoniga yaxshi yetib borishi uchun mohirona yo'l tutgan.

Adabiyotlar

1. Саломов F. Тил ва таржима. –Т. Фан, 1966.
2. Саломов F. Таржима назарияси асослари. –Т., Ўқитувчи 1980.
3. Саломов F. Адабий анъана ва бадиий таржима. –Т., Фан, 1980.
4. Саломов F., Таржима ташвишлари. – Т., Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.

GYUSTAV FLOBERNING "BOVARI XONIM" ROMANI MATNIDA UCHROVCHI "ROUGE" RANGIDAN YASALGAN FRAZEOLGIK BIRLIKLAR VA ULARNING TARJIMALARI TAHLILI

Hojiyeva G.S. (BuxDU)

Har bir o'rganilgan til insonga yangi dunyoni kashf etadi. Zero bejizga dono xalqimiz "Til bilgan – el biladi" deya naql qilmagan. Ana shu yangi olam go'zalliklaridan baxramand bo'lishda tarjimaning o'rni ham beqiyosdir.

Tarjimada davr ruhini aks ettirish borasida yagona o'lov, qonun-qoidalar bo'lishi mumkin emas. Bunda muammoni ochish eng avvalo asl nusxa xarakteriga hamda tarjimonning tarjima jarayonida o'z oldiga qo'ygan maqsadiga bog'liq.¹ Biz ushbu ilmiy ishda ranglar vositasida hosil bo'lgan fransuz FBlarining rus va o'zbek tillarida berilishini qiyosiy tahlillashni tadqiqot ishimizning maqsadi etib belgiladik. Buni amalga oshirishda esa bir necha fransuz yozuvchilarining asarlari va ular tarjimasiga tayandik.

Ushbu bo'limda biz fransuz adibi Gyustav Flober qalamiga mansub "Bovari xonim" ("Madame Bovary") romanida keltirilgan iboralarning frazeologik xususiyatlarini lesik-semantik nuqtai nazardan tahlil etishga urindik. Asarni uch tildagi varianlari asosida tadqiq etib, unda o'zimiz uchun kashf etgan xususiyatlar quyida keltirilgan.

Asarda "**Rouge**" ya'ni "Qizil" rang bilan yasalgan ko'plab o'tli, fe'lli, sifatli va ravishli FBlarga duch keldik.

Masalan:

Asliyatda: *Néanmoins, il rougissait un peu de cette obligation.* [231]

Rus tilida: *Однако он краснел при одной мысли об этом долге.* [211]

O'zbek tilida: *Lekin qarz esiga tushsa, **badanadan ter chiqib ketardi.*** [231]

Ushbu misollarda fransuz va rus tilidagi FBlar tarjimasida tarkibidagi obrazlar birgalikda bir-biriga muvofiq kelgan bo'lib, o'zbek tilidagi ibora garchand boshqacha ibora bilan ifodalangan bo'lsada, asl mazmunning stilistik mohiyatini badiiy tilga xos vositalar asosida o'zida to'la aks ettira olgan. Bunda tarjima tillarning milliy xususiyatidan kelib chiqqan holda, adekvatlikka asoslangan, deyish mumkin.

Asliyatda: *Sa joue à l'épiderme suave rougissait.* [258]

Rus tilida: *Нежные щеки горели.* [234]

O'zbek tilida: *Nafis yonoqlari yonardi.* [262]

Yoki bo'lmasa:

Asliyatda: *Elle se redressa toute rouge et le regarda par-dessus l'épaule, en lui tendant son nerf de boeuf.* [31]

Rus tilida: *Она выпрямилась и, вся вспыхнув, глядя на него вполоборота, протянула ему плетъ.* [44]

O'zbek tilida: *Qiz qaddini rostladi, **qip-qizarib ketib**, Sharlga qiyo boqib turib, qamchinni uzatdi.* [22]

Yuqoridagi misollar asosida biz ranglar vositasida hosil bo'lgan fransuz, rus va o'zbek tillaridagi FBlar tarkibida bevosita ekvivalent bo'la olish xususiyati ham mavjud ekanligini shohidi bo'ldik. Bunda har bir FB uchta til doirasida o'zaro variantdoshdir. Har ikkala misollarda FBlar holatni bildirib kelmoqda.

Asliyatda: *Le soir, après le maigre diner de son propriétaire, il remontait à sa chambre et se remettait au travail, dans ses habits mouillés qui fumaient sur son corps, devant le poêle rougi.* [24]

Rus tilida: *Вечером, после несытного обеда у хозяина, он шёл в свою комнату, снова садился заниматься – поближе к **раскалённой докрасна печке**, и от его отсыревшей одежды шёл пар.* [38]

O'zbek tilida: *Kechqurun xo'jayinnikida to'yar-to'ymas ovqatlanib, o'z xonasiga kirar va **lang'illab yonayotgan pechkaga** yaqinroq o'tirib, dars tayyorlashga tushardi, uning nam kiyimlaridan bug' chiqardi.* [15]

Yuqoridagi misollar solishtirilganda, ular mazmunan umumiylikka, stilistik jihatdan xususiylikka egaligi aniqlandi, ya'ni, har uchchala FB kontekstdan tashqarida boshqacharoq ma'no kasb etadi:

- **le poêle rougi** – qizargan pechka;

- **раскалённой докрасна печке** – cho'g'day qizigan pechka;

- **лангиллаб ёнаётган печка**.

O'z-o'zidan ko'rinadiki, ushbu birikmalar ma'no jihatdan ma'lum tafovutga ega. Ammo bu faktor FBning kontekstdagi mazmuni butunlay o'zgarib ketishiga olib kelmay, aksincha mavjud vaziyatni yorqinroq tasavvur etishga ko'maklashgan.

Asliyatda: *En face, au-delà des toits, le grand ciel pur s'étendait, avec le soleil rouge se couchant.* [25]

Rus tilida: *Напротив, над крышами, раскинулось безбрежное чистое небо, залитое багрянцем заката.* [39]

O'zbek tilida: *Ro'baro'da, tomlar tepasida shafaq nuridan yallig'lanib sof, bepoyon osmon ko'rinardi.* [15]

Agar mazkur iborani vosita tili orqali emas, to'g'ridan-to'g'ri tarjima etilsa, u "Ro'baro'da, tomlar tepasida botayotgan quyosh nuridan qizarinqirab, sof, bepoyon osmon ko'rinardi" shaklini oladi. Bunda

¹ O'rmonova N.M. Tarjimada tarixiy-arxaik leksikani aks ettirish prinsiplari va tarjima aniqligi. Filol.f.nom.diss... T, 2008, B.147.

o'quvchi gap kunning qaysi pallasi haqida borayotganligini to'liq idrok etishi mumkin. Ammo tarjimon vosita tiliga suyanib, boshqacha yo'l tutadi. Shunday bo'lsada, o'zbek tiliga o'girilgan jumlar obrazliligi darajasining yuqoriligi barcha nuqsonlarni berkitib, so'z san'ati qudrati ila chiroyli tarjima kasb etgan: "botayotgan quyosh nuridan qizarinqirab" emas, "shafaq nuridan yallig'lanib" shaklida.

Quyida "**Rouge**" ("qizil" rang) so'zidan yasalgan "**Rougir**" ("qizarmoq") fe'li bilan hosil bo'lgan FBarning bir necha ma'nolari izohlangan:

Asliyatda: *Laisse-moi! fit-elle, toute rouge de colère.* [206]

Rus tilida: *Оставь меня, – вся вспыхнув, проговорила Эмма.* [190]

O'zbek tilida: *Meni o'z holimga qo'y! – dedi tutaqib ketib Emma.* [205]

Yuqoridagi misolda "faire toute rouge de colère" (вспыхнуть) ya'ni, "tutaqib ketmoq" iborasi keltirilgan bo'lib, undagi FB vaziyatga ishora qiladi va birinchi misoldan tashqari keyingi gaplarda semantik mohiyatiga ko'ra rangni bildiruvchi ottenka yo'q.

Asliyatda: *L'hôtesse devint rouge de dépit.* [90]

Rus tilida: *Хозяйка покраснела от злости.* [93]

O'zbek tilida: *Qovoqxona bekasi jahldan qizarib ketdi.* [86]

Ammo ushbu misolda jahli chiqqan kishining ham holati izohlanib, ham qizarib ketganini ko'rishimiz mumkin. Bunda urg'u aynan "jahli chiqmoq"ga qaratilyapti.

Bir so'z bilan aytganda tildagi ranglar vositasida hosil bo'lgan frazeologik birliklar har bir halqning o'ziga xos urf-odatlarini psixologiyasi turmush-tarzi va mentalitetini o'zida aks ettirishda eng muhim omillardan biridir.

Adabiyotlar:

1. O'rmonova N.M. Tarjimada tarixiy-arxaiik leksikani aks ettirish prinsiplari va tarjima aniqligi. Filol.f.nom.diss... T., 2008.
2. Narzikulov A. K вопросу художественного перевода с французского на узбекский язык. Т., Фан, 1974.
3. Suvonova N.N. Frazeologiyaning sistem-satx sifatidagi talqini. Filol.f.n.diss... T., 2008.
4. Русско-узбекский словарь. I том. Институт языка и литературы им. А.С. Пушкина, Т., 1984.

ИНГЛИЗ АДАБИЁТИДАН ШЕЪРИЙ ТАРЖИМАДА ОБРАЗЛИ ВОСИТАЛАРНИНГ БЕРИЛИШИ

Ўринбоева Ф. (ЖизДПИ 2-курс магистранти)

Аслиятдаги образли услубий воситаларнинг таржимада ўрнини қоплаш (компенсация) йўли билан қайта яратилиши.

Бу усулни қуйидагича таърифлаш мумкин: айрим сабабларга кўра, таржимада муайян услубий восита тушириб қолдирилади, аммо асарнинг тил бойлигини, услубини, таъсирчанлигини заифлаштирмаслик учун бошқа бир сатрда, иложи бор пайтда, худди шу қолдириб кетилган воситага ўхшаш бирон образли восита билан унинг ўрни қопланади. Масалан:

Macbeth

So is he mine; and in such a bloody distance

That every minute of his being thrusts

Against my near'st of life; ...

(Shakespeare. Macbeth. Act 3, Scene 1)

Макбет

У менга ҳам душман, лекин шундоқ душманки,

Тирик туриб, у ҳаётда олган ҳар нафас

Менинг худди ҳаётимга қадалган ханжар.

(Шекспир. Макбет. 3-с., 1-к.

Инглизчадан Жамол Камол тарж.)

Аслият сатрларининг сўзма-сўз таржимаси қуйидагича:

У менга ҳам душман; ва шундай қонли масофадаки,

Унинг борлигининг ҳар бир дақиқаси

Менинг ҳаётимга қарши зарбадир.

"In such bloody distance" - "Шундай қонли масофадаки" истиоравий сифатлаши ўзбек тилида бўёқсиз "шундоқ" сўзи билан ифодаланган, аммо мазкур сатрларда йўқотилган образлилик "менинг худди ҳаётимга қадалган ханжар" тарзида қайта тикланиб, бошқа бир сатрда, аслиятда образли восита